

## SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “O‘N SAKKIZGA KIRMAGAN KIM BOR” ASARIDA QO‘LLANGAN POETONIMLAR

Umidabonu Tohirovna Jovbo‘riyeva,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Filologiya va san‘at fakulteti 231 - amaliy filologiya guruhi talabasi

E-mail: [ujovboriyeva@gmail.com](mailto:ujovboriyeva@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18513851>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek hikoyanavisligiga o‘z hissasini qo‘shgan yozuvchi Shukur Xolmirzayevning “O‘n sakkizga kirmagan kim bor” nomli qissasida berilgan onomastik birliklar, xususan, poetonimlar: toponim, gidronim, oronim, antroponim, ideonim va muvaqqat nomlar to‘g‘risida ma‘lumotlar berib o‘tilgan. Shuningdek, Shukur Xolmirzayev asarlarining qay darajada o‘rganilganligi haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** poetonim, metodologiya, gidronim, oronim, antroponim, mikrotoponim, ideonim, muvaqqat nomlar.

**Аннотация.** В этой статье приводится информация об ономастических единицах, в частности о поэтонимах: топонимах, гидронимах, оронимах, антропонимах, идеонимах и временных названиях, приведенных в рассказе “кто не вошел в восемнадцать” писателя Шукура Холмирзаева, внесшего вклад в Узбекское повествование. Также будет рассказано о том, насколько изучены произведения Шукура Холмирзаева.

**Ключевые слова:** поэтоним, методология, гидроним, ороним, антропоним, микропоним, идеоним, временные названия.

**Annotation.** This article provides information on onomastic units, in particular poetonyms: toponym, hydronym, oronym, anthroponym, ideonym and provisional names, given in the short story “who is not in the eighteen” by writer Shukur Kholmirezayev, who contributed to the Uzbek narrative. It is also mentioned to what extent the works of Shukur Kholmirezayev have been studied.

**Keywords:** poetonymy, methodology, hydronymy, oronymy, anthroponymy, microtoponymy, ideonymy, provisional names.

**Kirish va dolzarbligi.** Shukur Xolmirzayev o‘zbek adabiyotida realistik hikoyachilik maktabining eng yirik vakillaridan biri hisoblanadi. Uning ijodi voqelikni boricha, ortiqcha bo‘yoqlarsiz tasvirlashi bilan alohida ajralib turadi. Shukur Xolmirzayev asarlari, asosan, Surxondaryo tabiati, tog‘li qishloqlar hayoti, tog‘ning sodda, samimiy va chapani odamlarining o‘ziga xos xarakteri atrofida qurilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Shukur Xolmirzayev “adabiyotga Surxon koloritini – o‘zi tug‘ilib o‘sgan Boysun tog‘larining manzaralarini, surxondaryoliklar hayotini, udumlarini, betakror so‘zlash tarzini – dialektini olib kirdi” [1].

Asarlarda qo‘llangan onomastik birliklarni tahlil qilar ekanmiz, xususan, Shukur Xolmirzayevning ushbu qissasida berib o‘tilgan Surxondaryo viloyati hududidagi toponimlarni o‘rganish orqali ayrim tahlil qilinmagan jihatlarini tahlil qilib o‘tamiz. Shu bilan birgalikda, tadqiqotning dolzarbligi Surxon vohasida biz bilmagan obyektlarning tarixiy nomi va ular hozirgi kunda qanday nomlanishini o‘rganishdan iboratdir.

**Metodlar va o‘rganish darajasi.** Shukur Xolmirzayevning hikoyachilikka

qo'shgan hissasi salmoqli hisoblanib, uning "Yovvoyi gul", "Bahor o'tdi", "Ozodlik", "O'zbeklar", "Hayot abadiy", "Og'ir tosh ko'chsa" kabi o'nlab hikoyalari, hamda "Qil ko'prik", "So'nggi bekat", "Olabo'ji", "Dinozavr" romanlari va "O'n sakkizga kirmagan kim bor", "Taqdir bashorati", "Yur, tog'larga ketamiz", "Cho'loq turna", "Tog'larga qor tushdi" kabi o'nlab qissalari va boshqa asarlari nashrdan chiqqan.

Shukur Xolmirzayev ijodi yuzasidan ko'plab maqolalar va tadqiqotlar, jumladan, H.Karimovning "Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti" risolasi, akademik B.Nazarovning "Shukur Xolmirzayev" nomli ijodiy portreti yaratilgan. Bundan tashqari, yozuvchi hikoyalari haqida U.Normatov, S.Mamajonov, Q.Yo'ldoshev, H.Boltaboev, O.Otaxonov, R.Qo'chqorovlarning, adibning qissalari to'g'risida M.Qo'shjonov, A.Rasulov, M.Olimov; romanlari haqida U.Normatov, O.Tog'aev, I.G'afurov, S.Sodiqov va boshqa adabiyotshunos olimlarning maqolalari e'lon qilingan. Biroq bu tadqiqot va maqolalarda Sh.Xolmirzayev ijodining ayrim qirralari yoritilgan edi.

Shukur Xolmirzayevning hikoyachilikdagi mahorati, badiiy so'z san'ati, tasvir uslubi haqida ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilgan. Jumladan, G.N.Tavaldieva (2001), Sh.Doniyorova (2001) kabi adabiyotshunoslar yozuvchining hikoyachilikdagi o'ziga xos tasvir uslubi, voqelikni badiiy idrok etish tamoyillari haqida ilmiy xulosalar berganlar.

Bundan tashqari, "Shukur Xolmirzayev zamondoshlari xotirasida" (2010) kitobida Shukur Xolmirzayevga zamondosh ko'plab adabiyotshunoslar tomonidan adib mahoratining, yetuklik darajasining o'ziga xos tomonlari haqidagi noyob xotiralari jamlangan. Olim Toshboevning "Abadiy zamondosh" (2018) kitobida yozuvchi asarlarining yozilish tarixi, sababi, yozuvchi shaxsiyati haqida fikr yuritiladi.[2:3].

**Tadqiqot natijalari.** Yozuvchi asarlari leksikasiga e'tibor qaratar ekanmiz, uning asarlarida qo'llangan, xususan, "O'n sakkizga kirmagan kim bor" qissasida berib o'tilgan onomastik birliklarni tahlil qilish jarayonida Surxon vohasiga xos va dunyoga mashhur bo'lgan ayrim nomlarni ko'rishimiz mumkin.

Ushbu asar qissa janrida, 1964- yilda yozilgan bo'lib, yigirma besh yoshli yozuvchining mahorati o'zbek kitobxonlari orasida qisqa muddatda mashhurlikka erishdi. Qissa muhabbat, oqibat, adashish va qismat, hayotga intilish va yoshlar xarakterining chiniqishi muammolariga bag'ishlab yozilgandir. Urushning dog'i endigina yigirma besh yoshga kirgan Muslima ayani beva, ikki farzandi: Zaynabxon va Abdukarimni yetim qoldirdi. Asarda Jamshid, Umida va Tilov uchligi o'rtasidagi muhabbat tasvirlangan. Jamshid Umidaga bo'lgan muhabbatini anglab yetmagani onda Tilov Umidaga erishib chiqadi. Ammo Umida ko'ngli Jamshidda bo'la turib va unga achchiq qilib Tilov va o'zining hayotini barbod qilib qo'yadi. Bir qarashda bosh qahramon sizning ko'z oldingizda Jamshid timsolida gavdalansa, asar o'rtasiga kelib esa asar qahramoni Umida ekanligini anglab yetasiz.

Asarni tahlil qilishda, albatta, eng birinchi navbatda, yozuvchi tomonidan qo'llanilgan antroponimlarni tadqiq etib o'tsak. Bosh qahramon Umida – ushbu ism arabchadan olingan bo'lib, orzu qilingan, umid qilib kutilgan qiz degan ma'noni anglatadi. Umida obrazi orqali muallif ayol qalbi tug'yonlarini, uning aktrisalikka bo'lgan intilishini, ba'zida hayotiy umidlarning sinishini ko'rsatib bergan.

Jamshid, Umidaning bolalikdagi do'sti, urushdan keyingi yangi davr bolasi sifatida o'zining nozik his-tuyg'ulari, kitobsevarligi, kuzatuvchanligi bilan ajralib turadi. "urushdan keyingi davr bolasi" misolida bu ism bejiz tanlanmagan. Ism fors-tojikcha ulug', ulkan, muazzam ma'nolarini bildiradi va ma'rifatga intiluvchi, qalbida yangi davr nurini tashuvchi avlod sifatida gavalantiriladi.

Asar uchligining vakili Tilov ismi o'zbekcha – tilab, orzu qilib erishilgan ma'nosini aks ettiradi. Asarda dasht bolasi sifatida qaysar, yovvoyi o'ziga xos tabiatli bola sifatida namoyon bo'ladi [3].

Asar voqealari, asosan, Sangardak tog'larida bo'lib o'tadi. Qissada ko'plab oronimlar berib o'tilgan. Oronim – tog' va tepalik nomlari hisoblanadi.

Sangardak Surxondaryo viloyatining Denov tumanidagi qadimiy qishloq hamda shu hududdagi ikkita daryoning nomi hisoblanadi [4:417]. Sangardak — asardagi markaziy qishloq toponimi bo'lib, u asar qahramonlarining uyi joylashgan maskandir. Asarda Sangardakning qadimiy tarixi haqida ma'lumot berilib, u eradan avvalgi davrlarda juda obod savdo-sotiq va madaniyat shahri bo'lgani, Iskandar Zulqarnayn bu shaharning go'zalligiga mahliyo bo'lib, uni vayron qilishga ko'zi qiymagani aytiladi [5:45-46].

Qissada berilgan Yetimtepa toponimi asarning markaziy nuqtalaridan biri bo'lib, u ham tarixiy afsona, ham asar g'oyasi bilan mahkam bog'langan. Yetimtepa (Kultepa) — Sangardak qishlog'ining o'rtasida joylashgan, tuya o'rkachini eslatuvchi tepalik. Asar g'oyasi bilan bog'liqlilik jihati shuki, asar qahramonlaridan biri Jamshid otasiz yetim o'sganligi toponim orqali "yetimlik" motiviga urg'u berilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu birlik etimologik jihatdan Iskandar Zulqarnayn (Iskandar Maqduniy) istilosi bilan izohlanadi. Afsonaga ko'ra, Iskandar obod shaharni vayron qilgach, uning o'rnida faqat "kultepa" qoladi va bu joy "Yetimtepa" deb atala boshlaydi[4:45].

Shu bilan birgalikda, qissada "Ketmon Chopti" va "Farhod tog'i" oronimlari uchraydi. Manbada keltirilishicha, Farhod suv chiqarish uchun tog'ga ketmon urgan va anhor boshi aynan o'sha "Ketmon Chopti"dan chiqadi. Muallif bu nomlar orqali Sangardak tabiatiga jonli ruh baxsh etadi. Qishloqni suv bilan ta'minlaydigan anhorning boshi aynan shu "Ketmon Chopti"dan chiqishi qadimiy afsonaning hayotiy haqiqatga aylanganini ko'rsatadi. Bu detallar personajlarning, masalan, Tilovning o'z yurtiga bo'lgan mehrini va tog'ning "hayot manbayi" ekanligini ta'kidlashga xizmat qiladi.

Qissani onomastik jihatdan tadqiq qilar ekanmiz, suv obyektlari nomlariga ham alohida to'xtalib o'tsak. Qissada Yakkatol nomli chashma nomi berib o'tiladi. Asar qahramonlaridan biri Ikromjon ushbu chashma yoniga borib dam oladi va bolalik

xotiralari biroz bo'lsa ham jonlanadi. Yozuvchi ushbu chashmani qisqa izohlab o'tgan: "Yakkatol – qari tol. Jarlik bo'yida. Tanasi kovak bo'lib ketgan"[4:165]. Ushbu jumla orqali asarni o'quvchi kitobxon chashmaning nega bunday nomlanganligini anglab oladi.

Asarda antroponimlar bilan ifodalangan tarixiy yodgorlik, ziyorat maskanlari nomlari ham berib o'tilgan. Yodgorliklardagi antroponimlar xususida tilshunos olim N.Husanov "O'zbek antroponimlari tarixi" nomli monografiyasida mumtoz adabiy yodgorliklardagi antroponimlarning ma'noviy va uslubiy o'ziga xosliklarini tadqiq qilgan. Tilshunos badiiy tasvirning asosiy vositalaridan biri bo'lgan antroponimlar badiiy asarlarda boshqa so'zlar kabi ekspressiv-uslubiy vazifaga xoslanishi mumkinligini qayd etadi. N.Husanov tarixiy yodgorliklardagi antroponimlarni uslubiy xususiyatiga ko'ra ikki guruhga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladi: 1. Nominativ vazifada keluvchi antroponimlar. 2. Ma'lum bir kontekstda o'ziga xos qo'shimcha ma'noni, ekspressiv-emotsional ma'noni oluvchi antroponimlar. Ta'kidlash joizki, olim nazmiy asardagi ismning leksik mazmuni bilan muallifning badiiy niyati orasida muntazam aloqani topishga harakat qiladi. N.Husanov fikrlarini quyidagicha xulosalaydi: "Yodgorliklardagi ismlar qahramonning tashqi qiyofasiga, kasbiga, ruhiyatiga, millatiga, asarning umumiy g'oyasiga va joyiga mutanosib ravishda izchillik bilan tanlangan"[6:34].

Qissada yana bir gidronim nomi berilgan bo'lib, u "Parda cho'loqning hovuzi" deb nomlanadi. Ushbu hovuz qishloq ko'chasining burchagida joylashgan, atrofini keksa tollar o'rab olgan. Qahramonlar, xususan, Umida, aynan shu hovuzdan suv tashiydi. Qahramonning ushbu hovuzdan suv tashishi ularning kundalik hayoti va qishloq ijtimoiy manzarasini kitobxon ko'z o'ngida aniq gavdalantirishga katta yordam beradi.

Naim akaning qabri (go'ri) — Sangardak qishlog'idagi markaziy xotira maskani bo'lib, u Yetimtepa tepaligining eng yuqori nuqtasida joylashgan. Naim aka fuqarolar urushi qahramoni bo'lib, 18 yoshida vafot etgan. Asarda ushbu joy o'quvchilar (pionerlar) uchun ziyoratgoh sifatida tasvirlanadi: ular bu yerga kelib yig'ilishlar o'tkazishadi, sivizg'a chalishadi va qabr ustuniga gulchambarlar qo'yishadi.

Asarda Jamshidning otasi(1945-yil 9-mayda halok bo'lgan) dafn etilgan joy nomi ham ifodalangan. "Sovet jangchilari mozori" — Chexoslovakiyaning Praga shahrida joylashgan memorial majmua. Qissada chex pionerlari ham ushbu qabristonga kelib, o'zbek o'quvchilari kabi qahramonlar qabriga gullar qo'yishi aytib o'tilgan.

Teshiktosh g'ori — arxeologik yodgorlik, neandertal odam skeleti topilgan joy Tilov obrazi tilidan so'zlab berilgan.[4:46].

Har bir asar qahramonining shaxsiyati, qiziqishi, xarakteri, ichki kechinmalari haqida asarda qo'llanilgan ideonimlar ham so'zlab bera oladi. Masalan, ushbu qissada berilgan bir qator asarlar Umida va Jamshid obrazini yanada ochib beradi. Umidaning "Qorqiz", "Momaqaldiroq" (Katerina roli), "Boy ila xizmatchi" (Jamila roli) kabi asarlarga munosabati uning real hayotdan qoniqmasligini bildiradi. Jamshid sotib olgan "Ikki sandiq" ertak kitobi esa uning bolalarcha soddaligi va "o'gay ona-o'gay ota" mavzusidagi

hadiklarini ifodalaydi. Qahramonlarning ichki kechinmalarini tasvirlab beradi[4:25 - 36].

**Xulosa.** Shukur Xolmirzayevning ushbu qissasida yozuvchi tomonidan qo‘yilgan muvaqqat nomlar ham keltirilib o‘tilgan. Ushbu muvaqqat nomlar xususida tadqiqotchi olim D.R.Andaniyozova o‘zining “O‘zbek tilida muvaqqat onomastik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlari” nomli maqolasida tahlil qilib o‘tgan. Badiiy matnda qahramon ismlarining tanlanishi bilan birga uning taqdim qilinishi ham muhim hisoblanadi. Mualliflar qahramonni tanishtirar ekan, o‘ziga xos usullarni qo‘llaydilar. Aksar hollarda nom haqidagi ma’lumotlar muallif-roviiy nutqi orqali taqdim qilinsa, ayrim hollarda qahramonlar nutqi orqali oshkor qilinadi. Muvaqqat toponimlarning badiiy matndagi vazifalari ancha keng bo‘lib, mualliflar o‘zlari yaratgan xayoliy makonlariga qo‘ygan nomlari orqali muayyan jamiyat, muhit, ijtimoiy tanqid kabi keng ma’no qatlamlarini badiiy tarzda ifodalaydilar. Xususan, real hayotdagi mavjud joylarga baho berish maqsadi bo‘lgan ijodkor uni atayin o‘zi yaratgan xayoliy nomlariga yuklaydi. Bunda ijod qilingan nom ma’nosi muhim ahamiyat kasb etadi[6:198].

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Normatov U. (1982). Problems of style, artistic form. Maturity 356.
2. G. N. Tavaldieva. Shukur Xolmirzayev hikoyalarda tabiat va inson munosabatlarining badiiy talqini. Academic research in educational sciences volume. 2020.
3. Begmatov E. A. O‘zbek ismlari ma’nosi: (izohli lug‘at). -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007 – 608 b.
4. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [Matn]: lug‘at/tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 624 b.
5. Shukur Xolmirzayev, “Yozuvchi” nashriyoti, 1999.
6. A.D.Ruziqulovna. O‘zbek tilida muvaqqat onomastik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlari. Filologiya fan. nom. diss. - T.: 2025
7. <https://ziyonet.uz/ru>
8. <https://www.wikipedia.org/>
9. <https://adliya.uz/uzb/inner-page/ozbek-ismlarining-izohli-imlo-lugati>